



XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 9-aprel

VI-101-56-7-94-K/24

Jomboy tumani

Bosh prokuratura huzuridagi tuman majburiy ijro byurosining 2023-yil davomida faoliyati bo'yicha olib borgan ishlari to'g'risida

Fuqarolar va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini o'z vaqtida va sifatli ijro etishning samarali mexanizmlarini joriy etish, odil sudlovga ishonchni yanada mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6118-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunining 6-, 24- moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, bir yuz birinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Bosh prokuratura huzuridagi tuman majburiy ijro byurosining 2023-yil davomida faoliyati bo'yicha olib borgan ishlari to'g'risida, Bosh prokuratura huzuridagi majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i Sharipov Farxod O'lmasovichning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bosh prokuratura huzuridagi majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i (F.Sharipov)ga sud qarorlarini ijro etish, aliment va qarz undirish ishlari yetarli darajada emasligi natijasida fuqarolarning takroriy murojaat qilishiga sabab bo'layotganligi ko'rsatib o'tilsin.

3. Bosh prokuratura huzuridagi majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i (F.Sharipov)ga sud va boshqa organlar hujjatlarining ijrosini ta'minlashda majburiy ijro byurosi hamda manfaatdor idora va tashkilotlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'zaro hamkorligi kuchaytirish;

- fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari foydasiga kompensatsiya undirish bo'yicha qabul qilingan sud qarorlari ijrosi belgilangan muddatlarda to'liq bajarilishini ta'minlasin.

4. Bosh prokuratura huzuridagi majburiy ijro byurosi tuman bo'limi boshlig'i (F.Sharipov) tuman va shahar sektor rahbarlari va huquqni himoya qiluvchi organlar bilan hamkorlikda ijro hujjatlarining majburiy ijrosini ta'minlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarning sabab va shart-sharoitlarini doimiy ravishda joyga chiqqan holda o'rganish, muhokama qilish hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (O'.Najmitdinov)ga komissiya yig'ilishlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-noyabrdagi "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6118-son Farmoni ijrosini ta'minlash borasida ishlarni mas'ul tashkilotlar ishtirokida doimiy komissiya yig'ilishlarida muhokama qilib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi raisi(O'.Najmitdinov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SOBIROV KAYUM
XAMRAYEVICH